

Kirish (10 minut.).

Bilimlarni mustahkamlash. Dars mavzusiga kirish. Mavzuni e'lon qilish.

O'qituvchi "Qush, tulki, ayiq" o'yinini o'tkazadi. O'qituvchi asbobda tovushlarni (yuqori, o'rta va past) chaladi. O'quvchilar javoblarini harflar yordamida yozadilar. O'rta tovush T harfi (tulki), past tovush A harfi (ayiq) va baland tovush Q harfi (qush) bilan ko'rsatishadi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

Sizga ertaklar yoqadimi?

Sizning sevimli ertakingiz qaysi?

Oddiy ertakni emas, balki simfonik ertakni tinglashni xohlaysizmi?

Nima uchun u simfonik deb ataladi?

Asosiy qism (20 minut.).

"Petya va bo'ri" simfonik ertaki tarbiyaviy ertak bo'lib, bastakor Sergey Prokofyev tomonidan bolalarni simfonik orkestrning turli asboblarning tovush xususiyatlari bilan tanishtirish uchun maxsus yozilgan. Ushbu ertakning har bir qahramoni o'z cholg'u asbobi bilan ijro qilinadi.

O'qituvchi ertak matnini, jumladan, ertakning har bir qahramonining musiqiy jo'rligi bilan o'qiydi. Ertakdan musiqiy parcha tinglangandan so'ng, musiqa asboblari qanday ovoz berishini va o'quvchilar qahramonni qanday tasavvur qilishlarini hamda uni tasvirlashni so'raydi. Ma'lumot uchun, darslikning 19-betida tavsiflovchi so'zlar berilgan.

Petya (violonche, alt, skripkalar) maysazorda tanish qushni (fleyta) uchratadi va u o'rdak (goboy) bilan ularning qaysi biri haqiqiy qush ekanligi haqida bahslasha boshlaydi. Shundam mushuk (klarnet) paydo bo'lib, qushlardan birini ushslashga shaylanadi. Ammo qush daraxtga uchadi, o'rdak esa hovuzga sho'ng'ishga muvaffaq bo'ladi. Bobo (fagot) paydo bo'lib, nabirasini o'rmonda bo'ri kezib yurganidan ogohlantiradi va u ehtiyoj bo'lishi kerakligini uqtiradi. So'ngra bo'ri (valtorna) tez orada paydo bo'ladi. Mushuk daraxtga chiqib qochdi ammo o'rdak bexosdan qirg'oqqa chiqdi - va bo'ri uni yeb qo'ydi. Qush esa Petyaning iltimosiga ko'ra, Bo'rini chalg'itdi, shunda u Bo'rining dumiga arqon soldi. Ovchilar (dovul va katta baraban) o'z vaqtida yetib kelishdi, Petya bilan birga bo'rini bog'lab, hayvonot bog'iga olib ketishdi. Hikoya butun simfonik orkestr sadosi ostida barcha qahramonlar ishtirokidagi tantanali yurish bilan yakunlanadi.

Yakuniy xulosa, refleksiya (5 minut.).

Sizga ertak yoqdimi?

Sizningcha, ertakning nimasi qiziqroq - unda tasvirlangan so'zlar yoki musiqa uni qanday tasvirlaydi?

Bugun qanday xulosaga keldik? Musiqa so'zsiz nimanidir aytaladimi?

O'qituvchi o'quvchilarga keyingi darsda ertakni sahnalashtirishni taklif qiladi. Mustaqil tayyorgarlik sifatida o'quvchilarga ertak qahramonlarining musiqiy tavsifi, audio yozuvini tinglash va qahramonlarning xatti-harakati, xarakteri, harakatlarini tasavvur qilish tavsiya etiladi.

O'quvchilar o'z natijalarini ertakdagagi o'zlariga yoqqan asbobni chalish orqali baholaydilar.

Ikkinci soat.

Darsning texnologik kartasi

Zaruriy vositalar: darslik, gadjet.

Tashkiliy jarayon (5 minut.).

O'qituvchi va o'quvchilar bir-birlari bilan salomlashadilar, davomat tekshiriladi.

Kirish (10 minut.).

Bilimlarni mustahkamlash. Dars mavzusiga kirish. Mavzuni e'lon qilish.

O'qituvchi quyidagicha savollar beradi:

O'tgan darsda qanday ertak haqida bilib oldingiz?

Bu ertakda qanday g'ayrioddiy hodisalar bor?

Asosiy qism (25 minut.).

O'qituvchi ertakni sahnalashtirishni taklif qiladi va o'z xohishiga ko'ra aktyorlarni tanlaydi.

O'qituvchi "Petya va bo'ri" ertakidan musiqiy parcha ijro etadi. Petyani qanday asboblar tasvirlaydi? Petyani qanday tasavvur qilasiz? Kim Petya bo'lishni xohlaydi?

O'qituvchi "Qush"dan musiqiy parcha ijro etadi. Qushning ovozi qaysi asbobda ijro etiladi? Fleyta nimaga o'xshaydi? Kim qushni o'ynashni xohlaydi?

O'qituvchi "O'rdak"dan musiqiy parcha ijro etadi. O'rdak qaysi asbobda ovoz chiqaradi? Goboy qanday jaranglaydi? Kim o'rdakni o'ynashni xohlaydi?

O'qituvchi "Mushuk"dan musiqiy parcha ijro etadi. Mushukning ovozi qaysi asbobda ijro etiladi? Klarnet nimaga o'xshaydi? Kim mushukni o'ynashni xohlaydi?

Shunday qilib, barcha rollarning ijrochilari tanlanadi va ertak musiqaga qo'yiladi.

Yakuniy xulosa, refleksiya (5 minut.).

Sizga "Petya va bo'ri" ertakiga musiqiy sayohatimiz yoqdimi?

Ushbu ertakning mualifi kim?

Har bir ertak qahramoni qanday xarakterga ega ekanligini tasavvur qilish siz uchun oson bo'ldimi? Bunda musiqa sizga qanday yordam berdi?

Dars oxirida o'quvchilar 19-betdagи eng mos so'zni tanlash orqali o'z yutuqlarini baholaydilar. Masalan, agar hammasi yaxshi bo'lsa, so'zlar:

asboblarning nomlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Agar o'quvchilar javob berishga qiyalsa, maslahat sifatida slaydlar yoki asboblardan rasmlaridan foydalanish mumkin.

Yakuniy xulosa, refleksiya (5 minut).

1. Bugun qanday yangi bilim o'rgandingiz?
2. Dirijyor kim? Bizga nima uchun dirijyor kerak?
3. Sizga qaysi guruhlardagi musiqa asboblari yoqadi?
4. Qanday musiqa asboblarda chalishni o'rganmoqchisiz?

Murabbiy o'z yutuqlarini baholash maqsadida o'quvchilarga har qanday asbobning rasmini ko'rsatganda, agar barchaga yoqqan bo'lsa, qarsak chalishni taklif qiladi. Agar nimadir yoqmagan bo'lsa, ko'rsatilgan asbobga qarsak chalmaslikni aytadi.

5-6-darslar. Simfonik ertak

Darsning maqsadi:

- quvchilarning simfonik orkestr asboblari haqidagi bilimlarini oshirish;
- bastakor Sergey Sergeevich Prokofyev ijodi haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- o'quvchilarda musiqiy va estetik ko'nikmalarni rivojlantirish.

Ta'lim natijalari:

- o'quvchilar "Petya va bo'ri" simfonik ertagi haqida tasavvurga ega bo'ladi;
- o'quvchilar simfonik orkestr cholg'u asboblарини tovushiga ko'ra ajrata oladilar;
- o'quvchilar musiqiy asarlarga o'z munosabatini bildira oladilar.

Zaruriy vositalar: darslik, gadget, musiqa asboblari tasvirlangan slaydlar yoki kartalar.

Darsning texnologik kartasi

Birinchi soat.

Tashkiliy jarayon (5 minut.).

O'qituvchi va o'quvchilar bir-birlari bilan salomlashadilar, davomat tekshiriladi.